

BUXORO XALQ SOVET RESPUBLIKASIDA IQTISODIY HAYOT (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)

To‘xtayev Shohrux Eshpo‘latovich

Qarshi davlat universiteti O‘zbekiston tarixi kafedrası o‘qituvchisi

ORCID: 0009-0006-8458-7129

e-mail: shohrux.tuxtayev@mail.ru

UDK 94 (575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqola Qashqadaryo viloyatining 1920-1924-yillardagi iqtisodiy hayotini ochib berishga qaratilgan. Unda Qashqadaryo vohasining qishloq xo‘jaligidagi ahvol, aholi turmush tarzining holati, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun ajratilgan mablag‘lar va banklar faoliyati haqida qisqacha to‘xtalib o‘tilgan. Ushbu tadqiqot Buxoro Xalq Sovet Respublikasining iqtisodiy hayotini Qashqadaryo viloyati misolida yoritib bergan.

Kalit so‘zlar: Buxoro Xalq Sovet Respublikasi, Qashqadaryo, G‘uzor, Shahrisabz, Kitob, hunarmandchilik, sanoat, savdo, Qarshi-G‘uzor-Kitob, Markaziy xalq banki.

Аннотация: Данная статья направлена на раскрытие экономической жизни Кашкадарьинской области в 1920-1924 годах. В ней кратко рассматривается состояние сельского хозяйства Кашкадарьинской долины, уровень жизни населения, средства, выделенные на развитие сельского хозяйства, а также деятельность банков. Данное исследование освещает экономическую жизнь Бухарской Народной Советской Республики на примере Кашкадарьинской области.

Ключевые слова: Бухарская Народная Советская Республика, Кашкадарья, Гузар, Шахрисабз, Китаб, ремесла, промышленность, торговля, Карши-Гузар-Китаб, Центральный народный банк.

Abstract: This article aims to reveal the economic life of the Kashkadarya region during 1920-1924. It briefly touches upon the state of agriculture in the Kashkadarya valley, the living conditions of the population, funds allocated for the development of agriculture, and the activities of banks. This study highlights the economic life of the Bukhara People’s Soviet Republic using the example of the Kashkadarya region.

Keywords: Bukhara People’s Soviet Republic, Kashkadarya, Guzar, Shakhrisabz, Kitab, handicrafts, industry, trade, Karshi-Guzar-Kitab, Central People’s Bank.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Dunyo miqyosida bugungi davr globallashuv bosqichi sharoitida sodir bo‘layotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, turli doiralarning manfaatli to‘qnashuvlari va ularning yuzaga chiqish sabablarini tahlil qilish va o‘rganish dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi, xususan Qashqadaryo vohasining XX asrning 20-yillarida iqtisodiy hayotining rivojlanishi, aholi turmush sharoitining kechishi, shuningdek mamlakatdagi sovet tuzumiga qarshi norozilik harakatining yuzaga kelishi, uning maqsad va vazifalari, harakatlantiruvchi kuchlari, sabab va oqibatlarini xolis o‘rganish tadqiqotchilar oldida turgan muhim asosiy vazifalardan biridir.

Jahonning turli ilmiy-tadqiqot markazlari, ixtisoslashgan ilmiy muassasalar hamda institutlar tomonidan xalqlarning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy ahvolini namoyon qilib beruvchi tarixiy hujjatlar o‘rganilmoqda. Xususan, sovet davlatning dastlabki o‘rnatilgan davrida u tomonidan bosib olingan O‘rta Osiyoning qator hududlarida amalga oshirilgan qarshilik harakatlari, bu harakatlarni bostirishga qarshi sovet hokimiyati tomonidan olib borilgan siyosatning amaliy hayotga tatbiq etish barobarida, bu harakatlarning iqtisodiy hayotga ta’sirining nazariy va amaliy tavsiyalarini ishlab chiqishga qaratilgan ishlar amalga oshirilmoqda.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi

to'g'risida" gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2019 yil 5 yanvardagi 222-XX topshirig'i asosida «O'zbekiston tarixini o'rganish ishlarini samarali tashkil etish» ga qaratilgan «Yo'l xaritasi», O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 noyabrdagi 936-son O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi va hududlardagi oliy ta'lim muassasalari tuzilmasida Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeylarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 9 iyundagi 357-son O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi va hududlardagi oliy ta'lim muassasalari tuzilmasidagi qatag'on qurbonlari xotirasi muzeylari hamda «shahidlar xotirasi» jamoat fondini qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi qarorlar va sohaga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston tarixini xolis va haqqoniy yaratish uchun imkoniyat va sharoit tug'ildi. BXSР tarixining ko'p jihatlari keyingi yillarda yaratilgan tadqiqotlarda yoritildi. Lekin BXSР ning sharqiy hududlari hisoblangan Qashqadaryo vohasining iqtisodiy hayoti batafsil yoritilmadi.

XX asr boshida Qashqadaryo hududlari Buxoro amirligi tarkibida edi. 1920-yil 28-avgust kuni Frunze qo'mondonligiga qarashli 1-Turkiston otliq diviziyasining M.A.Melkumov boshchiligidagi qo'shini, Taxta Qoracha dovonidan oshib, Kitob va Shahrisabzga hujum uyushtiradi[1]. So'ngra Qarshi, Kitob, Shahrisabz, G'uzor, Chiroqchi, Yakkabog' beklilari bosib olinadi. Tinch aholi ustiga qilingan hujum natijasida qishloqlar vayron qilinadi, ekin maydonlari yo'q qilinadi.

1920-yil 2-sentyabrda Buxoro shahrining bosib olinishi bilan, qizil armiya tomonidan amirlik tarkibidagi 27 viloyat (beklik) va 11 tuman ham birin-ketin bosqinchilar tomonidan zabt etiladi[2]. O'zbek davlatchiligining mang'itlar hukmronligi davri shu bilan o'z nihoyasiga yetadi. 1920-yilning 14-sentyabrda Xalq Nozirlar Sho'rosi, Inqilobiy Komitet va

Buxoro Kompartiyasi MKning umumiy yig'ilishida 9 kishidan iborat[3], Butun Buxoro Inqilobiy Komiteti tuzildi.

1920-yilning 6-8-oktabr kunlari Butunbuxoro xalq vakillarining I qurultoyi chaqirilib, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSР) tuzilganligi e'lon qilindi[4]. Uning hududi 182,193 ming km², aholisi 2,2 mln kishidan ko'proq, asosan, o'zbeklar, tojiklar, turkmanlar va boshqa xalqlar yashagan[5]. Bu davlat tuzumi jihatidan xalq demokratik hokimiyati edi. 1920-yilning kuzida BXSРda dastlabki ma'muriy-hududiy bo'linish o'tkazilib, u viloyatlar, tumanlar kentlar va qishloqlarga ajratilgan. Buxoro respublikasidagi ma'muriy-hududiy bo'linish ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyatga qarab tez-tez o'zgarib turgan. Jumladan, 1922-yilda 7 ta, 1923- yilda 8 ta, 1924-yilda 15 viloyat mavjud bo'lgan[6]. 1924-yil 1-oktyabrda BXSРda ma'muriy-hududiy bo'linish qayta o'tkazilib, viloyatlar o'rniga 5 ta okrug tuziladi[7]. Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Turkman (Amudaryo), Sharqiy Buxoro okruglari shular jumlasidandir. Shu davrda Qashqadaryo okrugida 2 ta viloyat (Qarshi va Shahrisabz), 9 ta tuman (Qarshi, Koson, Beshkent, Shahrisabz, Kitob, Yakkabog', Chiroqchi) tuzildi.

Buxoro Xalq Sovet Respublikasi agrar mamlakat bo'lib, aholining asosiy qismi qishloq xo'jaligida dehqonchilik bilan shug'ullangan. 1920-yilda BXSРda "Ziroat ishlari soveti" (qishloq xo'jalik ishlari nozirligi) tashkil etildi. Nozirlikka Buxoro jadidchilik harakatining yirik vakillaridan biri Mirzo Abdulrahim Yusufzoda tayinlandi. U ushbu lavozimda 1920- yil kuzidan 1921-yil yanvariga qadar faoliyat ko'rsatdi.

"Buxoro axbori" gazetasining 1920-yil 21-noyabrda chop etilgan maqolada, shu yilning 11-oktyabrda BXSР hukumati tomonidan "Oziq andozi va uning miqdori, narxi xususida" qaror qabul qilinganligi haqida ma'lumot beriladi[8]. Shuningdek, gazetada chop etilgan ushbu hujjatda respublika hududida yashayotgan aholi zimmasiga qancha miqdorda qishloq xo'jalida yetishtiriladigan mahsulotlarini tayyorlab, yetkazib berish majburiyati yuklatilganligi ko'rsatib o'tiladi. Masalan, 1920-yilda Qarshi hududi dehqonlari

davlatga 525000 pud don, 193000 pud beda yemi, 669000 pud arpa, 73000 pud mayiz topshirishlari zarur bo'lgan. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini davlat tomonidan qabul qilib olish jarayonlarida hududlar bo'yicha solishtirilganda narxlar turlicha bo'lganligini ham ko'rishimiz mumkin. Misol uchun, Buxoro hududida 1 pud donning narxi 280 rubl bo'lgan bo'lsa, Qarshida esa 1 pud donning narxi 268 rubl bo'lgan. Ammo 1 pud arpaning narxi ikkala hududda ham bir xil, 160 rubl qilib belgilangan[1]. Ko'rinib turibdiki, narxlar o'rtasida bir xillik bo'lmagan.

1920-yilda Rossiyada yuz bergan qurg'oqchilik va buning oqibatida ro'y bergan ocharchilik mamlakatning katta hududlarini qamrab oladi. Bunday vaziyatda BXSР iqtisodiy jihatdan qiyin vaziyatda bo'lishlariga qaramay, 1921–1922 yillarda markazga 4,4 mln pud g'alla[9] yuboradi. Shuningdek, BXSРning oblastlaridan ham Rossiyaga nafaqat g'alla, paxta, jun mahsulotlari ham yuborilgan. 1920-yilning dekabr oyida Rossiyaga 800 vagon paxta, 200 vagon jun bepul berib yuboriladi. 1921-yilning iyun oyida 50 ming pud g'alla jo'natiladi. Jumladan, mazkur yilning 15 iyunida Qarshi va Karmanadan Moskvaga 20 vagon, iyul oyida esa 25 vagon don, 1922-yilning yanvarida Qarshidan Boshqirdistonga 28 ming pud don yuborilgan[1].

1923-yilda Qori Yo'ldosh Po'latov Qarshi va Chorjo'y oblastlarida bo'lib, dehqonlarining ahvolini borib ko'radi. Dehqonlarga 10 ming pud bug'doy, 5000 pud jo'xori, 1000 pud mosh, 400 pud kunjut beradi. Ahvoli nochor kishilarga 500 bosh qoramol ham tekinga tarqatiladi[10].

Buxoro Xalq Sovet Respublikasida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini markazga tashib ketish uchun temiryo'l benihoya zarur edi. Shuning uchun, 1923-yil 22- dekabrda BXSР Xalq Nozirlar Sovetining Qarshi–G'uzor va Qarshi-Termiz temiryo'lini qurish to'g'risidagi qarori qabul qilingan[1]. Temir yo'l qurilishi xarajatlari 1million 250 ming rubl oltin hisobida baholangan va bu mablag'ning yarmini BXSР, qolgan yarmini Ittifoq organlari to'lashi lozim edi[11]. Qarorda temir yo'l qurilishini 1924- yilga kelib tugatilishi nazarda tutilgan edi. BXSР

hukumati Qarshi-G'uzor-Kitob va Karki-Termiz temir yo'l tarmog'ini tiklash ishlari uchun 1 million 450 ming rubl ajratgan[12]. Shu yilning noyabrida Qarshi–Kitob temir yo'lida ta'mirlash ishlari nihoyasiga yetkazilgan va poyezdlar qatnovi yo'lga qo'yiladi.

1920–1924 yillarda O'zbekiston janubiy hududlarida hunarmandchilik, sanoat va savdoni rivojlantirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratilib, vohaning qishloq xo'jaligidagi dehqonchilik va chorvachilik sohalarini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan hunarmandchilik artellari tashkil qilina boshlandi.

BXSРning mazkur hududdagi boshqaruvi davrida an'anaviy hunarmandchilik mavjud bo'lgan, ammo zamonaviy sanoat aytarli rivojlanmagan[13]. 1920-yilda Shahrisabzda Eshonqulboy Soliyevning mulki bo'lgan yagona paxta tozalash zavodi bo'lgan. Ushbu korxona kam quvvatli bo'lib, suv yordamida ishlatilgan. Zavodda paxta qayta ishlanib, tola ishlab chiqarilgan.

1920-yilning kuzida Buxoro shahrida Markaziy xalq banki ish boshladi. Hukumat tomonidan bank kerakli miqdordagi mablag' bilan ta'minlangan. Respublika oblastlarida bankning shu'balari tashkil etila boshlandi. Jumladan, 1921- yilning 1-yanvarda Qarshi viloyatida bankning shu'balari tashkil etildi[14]

BXSР hukumati dehqon xo'jaliklariga kooperatsiya yo'li bilan yordam ko'rsatish maqsadida 1923-yil sentyabrda kooperatsiya to'g'risida dekret chiqardi. Respublikada Markaziy kooperativ komissiyasi tuzildi. Qishloq xo'jaligida islohotlarni samarali amalga oshirish uchun katta miqdordagi mablag'ni talab qilardi. Shu maqsadda hukumat, bu masalaga alohida e'tibor qaratgan. 1923-yilning oxirlarida Buxoroda, O'rta Osiyo Qishloq xo'jalik bankining bo'limi ochildi. Jumladan, Qarshi viloyati ham mazkur bankning bo'limi tashkil etildi[15]. Keyinchalik hukumat sarmoyasi hisobiga kuchaygan qishloq xo'jalik banki ko'p qishloqlarda qarz beruvchi shirkatlar ochdi. Bu shirkatlar vositasida dehqon xo'jaliklari tomonidan qarz olindi, shuningdek, ular qishloq xo'jalik asbob-uskunolari, ekish uchun urug'lik va boshqa narsalar bilan ta'minlandi. Bundan

tashqari, Buxoro hukumati qishloq xo'jaligini moliyalashtirishni yaxshilash uchun 1923-yil qo'shimcha 1 mln oltin rubllik kredit ajratgan, chunki bu davrda qishloq xo'jaligining ko'p tarmoqlari og'ir ahvolga kelib qolgan edi.

1922-yildan boshlab BXSРda oziq-ovqat solig'i mahsulot va pul ko'rinishida olish joriy etilgan. Faqat ushr solig'i mahsulot tarzida olingan. Mazkur yilning yanvar oyidan boshlab oblastlarda soliq boshqarmalari faoliyati yo'lga qo'yiladi va aholidan soliq yig'ish ishlari ular tomonidan olib boriladi. "Ozod Buxoro" gazetasida yozilishicha, 1923-yilda G'uzor rayoni soliq mudirining bergan ma'lumoti bo'yicha aholidan soliqning 98 foizi to'planib, ushr solig'i miqdori 7551 so'm, zakot solig'i tushumi 15762 so'mni tashkil etgani qayd etilgan[16].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Buxoro amirligi tugatilib, uning o'rni tashkil etilgan Buxoro Xalq Sovet Respublikasi iqtisodiy holatini yaxshilashga va rivojlantirishga e'tiborini qaratdi. BXSР tarkibida bo'lgan Qashqadaryo vohasi aholisi

murakkab siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy davrni o'z boshidan kechirdi. Respublika hukumati tomonidan "Yer to'g'risida"gi dekret qabul qilinib, amaldorlar ixtiyorida barcha mulklar va yer, umumxalq mulki deb e'lon qilindi. Hukumatning mulkdorlar tabaqasiga nisbatan bunday munosabati qattiq norozilikka sabab bo'ldi. BXSР boshqaruvi yillarida Qashqadaryo hududida an'anaviy hunarmandchilik mavjud bo'lgan, ammo zamonaviy sanoat deyarli shakllanmagan. Faqat Shahrisabz shaharida paxta tozalash korxonasi mavjud edi. Vohaning shaharlari va mahalla guzarlarida yashagan aholisining asosiy qismi kulolchilik, to'qimachilik, temirchilik, chilangarlik, shishasozlik kabi hunarmandchilik turlari bilan shug'ullangan.

Bundan tashqari bu hududda davom etayotgan milliy-ozodlik harakatlari ham iqtisodiyotni rivojlanishiga o'ziga xos tarzda salbiy ta'sir ko'rsatayotgan edi. Lekin shunday bo'lsada, aholini ijtimoiy himoya qilish ishlari biroz bo'lsada rivojlanayotgan edi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. История Бухарской Народной Советской Республики // Сборник документов. – Тошкент: "Фан", 1976.
2. Жўрақулов О. Қашқадарё манғитлари. – Тошкент: "Фан", 1993.
3. Ражабов Қ. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш. – Тошкент: "Маънавият", 2002.
4. O'zMA, P-47-fond, 1-ro'yxat, 5-yig'majild, 65-varaq.
5. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2-жилд. – Тошкент, "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2001.
6. Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Иккинчи китоб. – Тошкент: "Янги аср авлоди", 2019.
7. O'zMA, P-47-fond, 1-ro'yxat, 320-yig'majild, 10-varaq.
8. "Buxoro axbori" gazetasi. 1920-yil 21-noyabr.
9. Шукуров А. Бухорода совет ҳокимиятининг мустақамланишида РСФСР нинг роли // "Ўзбекистонда ижтимоий фанлар". – Тошкент, 1970. – № 8.
10. Ҳайитов Ш., Бадриддинов С., Раҳмонов К. Бухоро Халқ Совет Республикаси: Иқтисодиёт, ижтимоий сиёсат, маданий ҳаёт (1920–1924 йиллар). – Бухоро, 2005.
11. Очерки истории Кашкадарьинской и Сурхандарьинской областей Узбекистана. – Ташкент: "Фан", 1969.
12. O'zMA, P-53-fond, 1-ro'yxat, 52-yig'majild, 37-varaq.
13. O'zMA, P-86-fond, 1-ro'yxat, 2393-yig'majild, 30-varaq.
14. "Buxoro axbori" gazetasi. 1921-yil 7-iyul.
15. O'zMA, P-47-fond, 1-ro'yxat, 414-yig'majild, 1-5 varaq.
16. Soliq ishlari // "Ozod Buxoro" gazetasi. 1923-yil 9-aprel.
17. Soliq ishlari // "Ozod Buxoro" gazetasi. 1923-yil 9-aprel.